

NAVOIY VILOYATI HUDUDIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLARDAN  
ATMOSFERA HAVOSIGA CHIQRILGAN ZARARLI MODDALARNI  
KAMAYTIRISHGA QARATILGAN CHORA TADBIRLAR.

Shakarov Fazliddin Baxriddin og‘li  
*Erkin tadqiqotchi Ekolog*

**Annotatsiya:** *Navoiy viloyati respublikamizdagi hudud jihatdan eng yirik viloyat hisoblanadi. Bu hududning katta qismi cho‘ldan tashkil topgan. Cho‘l hududining kattaliligiga qaramastan bu hudud tabiiy resurslarga ham ham boydir shu sababli bu hududda yildan yilga sanoatkorxonalari transport vositalari va turli tashkilotlar soni ham ortib bormoqda. Buning natijasida viloyat hududidagi turli tashkilotlar, sanoat korxonalari va transport vositalaridan atrof muhitga chiqarilayotgan zararli moddalar miqdori ham ortib bormoqda. Buning natijasida turli muammolar ham kelib chiqmoqda. Ushbu maqola turli tashkilotlar va sanoat korxonalari tomonidan ushbu muammolarni bartaraf etish uchun qilayotgan ishlarga qaratilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *korxonalar, tashkilotlar, tabiiy resurslar, atmosfera, zararli moddalar, ko‘chma manbalar, turg‘un manbalar.*

Navoiy viloyati Respublikamizdagi eng yirik sanoat korxonalariga ega bo‘lgan yetakchi viloyatlardan hisoblanadi. Navoiy viloyati hudud jihatdan va yer osti boyliklari zaxirasi buyicha ham Respublikamizda yetakchi o‘rinda turadi. Shuning uchun ham bu viloyatda sanoat korxonalari va turli tashkilotlar soni yildan yilga keskin ortib bormoqda. Bu o‘z o‘rnida turli ekologik muammolarni ham keltirib chiqaradi. Eng asosiy muammolaridan biri bu atmosfera havosiga chiqariladigan chang va turli zararli gazlardir.

Navoiy viloyati hududida yer osti qazilma boyliklari va turli tabiiy resurslarning ko‘pligi sababli bu hudud investirlarni va tadbirkorlarni o‘ziga jalib qilib kelmoqda. Shuning uchun ham bu hududda sanoat korxonalari va turli tashkilotlar soni yildan yilga keskin ortib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan 2002-yilda Navoiy viloyati hududida 4577 ta korxonalar va tashkilotlar bulgan bulsa, 2012-yilga kelib bu ko‘rsatkichlar 7857 tani, 2022-yilga kelib esa 22711 tani tashkil qilgan.

**Navoiy viloyatidagi korxonalar va tashkilotlar**

<b>№</b>	<b>Yillar</b>	<b>Soni</b>
<b>1</b>	<b>2002</b>	<b>4577</b>
<b>2</b>	<b>2003</b>	<b>5088</b>
<b>3</b>	<b>2004</b>	<b>5096</b>
<b>4</b>	<b>2005</b>	<b>4334</b>
<b>5</b>	<b>2006</b>	<b>4361</b>
<b>6</b>	<b>2007</b>	<b>4554</b>
<b>7</b>	<b>2008</b>	<b>5243</b>
<b>8</b>	<b>2009</b>	<b>6168</b>
<b>9</b>	<b>2010</b>	<b>7024</b>
<b>10</b>	<b>2011</b>	<b>7249</b>
<b>11</b>	<b>2012</b>	<b>7857</b>

<b>№</b>	<b>Yillar</b>	<b>Soni</b>
<b>12</b>	<b>2013</b>	<b>7919</b>
<b>13</b>	<b>2014</b>	<b>8062</b>
<b>14</b>	<b>2015</b>	<b>8127</b>
<b>15</b>	<b>2016</b>	<b>8533</b>
<b>16</b>	<b>2017</b>	<b>8771</b>
<b>17</b>	<b>2018</b>	<b>9469</b>
<b>18</b>	<b>2019</b>	<b>11175</b>
<b>19</b>	<b>2020</b>	<b>17067</b>
<b>20</b>	<b>2021</b>	<b>20133</b>
<b>21</b>	<b>2022</b>	<b>22711</b>
<b>22</b>	<b>2023</b>	<b>25179</b>

Navoiy viloyati hududidagi turli ko‘chma va turg‘un manbaalardan 2011-yilda atmosfera havosiga 45.2 ming tonna zararli moddalar chiqarilgan bulsa, 2016-yilga kelib bu ko‘rsatkich 57.4 ming tonnani, 2021- yilda esa 68.6 ming tonnani tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkichlardan ko‘rinib turibdiki Navoiy viloyatidagi sanoat korxonalarini, tashkilotlar va ko‘chma manbalarning soni keskin tarzda ortib borgan.

Yillar kesimida Navoiy viloyati atmosfera havosiga tashlangan zararli moddalar miqdori (ming tonna).

<b>№</b>	<b>Yillar</b>	<b>Atmosfera tashlangan zararli moddalar miqdori (ming tonna)</b>
<b>1</b>	<b>2011</b>	<b>45,2</b>
<b>2</b>	<b>2012</b>	<b>42,4</b>
<b>3</b>	<b>2013</b>	<b>43,9</b>
<b>4</b>	<b>2014</b>	<b>42,6</b>
<b>5</b>	<b>2015</b>	<b>47</b>
<b>6</b>	<b>2016</b>	<b>57,4</b>
<b>7</b>	<b>2017</b>	<b>44,1</b>
<b>8</b>	<b>2018</b>	<b>49,9</b>
<b>9</b>	<b>2019</b>	<b>43,6</b>
<b>10</b>	<b>2020</b>	<b>48,4</b>
<b>11</b>	<b>2021</b>	<b>68,6</b>
<b>12</b>	<b>2022</b>	<b>42</b>

Bu ko‘rsatkichlardan ko‘rinib turibdiki yillar davomida atmosfera tashlangan zararli moddalar hajmi o‘zgarib turibdi. Bu o‘zgarishlarga asosiy sabab sanoat

korxonalari, turli tashkilotlar va transport vositalarining ko'payishi shuningdek eski sanoat korxonalarining qayta rekonstruksiya qilinishi natijasida yangi kam chiqindili va chiqindisiz texnologiyalarning qo'llanilishidir. Buning natijasida turli tashkilot va sanoat korxonalardan chiqarilayotgan zararli moddalarni ushlab qolish va ulardan boshqa yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmoqda. Bunga misol qilib "Navoiy azot" AJ asosiy sexlari va ishlab chiqarishlari loyihasi "O'zbekiston Respublikasi AJning barcha tegishli korxonalari qatori 1960 va 1970 yillarda amalga oshirilgan bo'lib, o'zining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha ikkinchi avlod agregatlariga kiradi, o'sha davrdagi amaldagi normalar va qoidalarga muvofiq ekologik muammolarni yechish keyinchalik korxonada tomonidan mustaqil ravishda hal qilingan. 1991 yildan boshlab ishlab chiqarish, sexlar va uchastkalardan foydalanishni loyihalash O'zbekiston Respublikasining tabiatni muhofaza qilish talablariga muvofiq amalga oshirilmoqda. Dastlabki loyihalarda asosiy mahsulotlarni ishlab chiqarish 1,5 marta kamayganiga qaramay, atmosferaga zararli moddalar tashlamalari va chiqindi suv bilan ifloslantiruvchi moddalar chiqindilari ko'p marta kamaytirilgan. 1980 yillarda statistik hisobot ma'lumotlariga ko'ra, atmosferaga zararli moddalarning yalpi emissiyasi yiliga 20,8 ming tonna, jumladan, azot oksidi 7,7 ming tonna, ammiak 1,25 ming tonnani tashkil etgan. 2018 yilda atmosferaga zararli moddalarning yalpi emissiyasi 6,6 ming tonnani, shu jumladan, azot oksidi 0,86 ming tonnani, ammiak 0,9 ming tonnani tashkil etdi.

Mavjud vaziyatlarni inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 apreldagi "Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4265-sonli qarori bilan hozirgi kunda korxonada uchta yirik investitsiya loyihasi, eng so'nggi to'rtinchi avlod texnologiyalari asosida amalga oshirilmoqda.

Texnik audit natijalariga ko'ra, 2015 yildan hozirgi kungacha 2 mlrd AQSh dollardan ortiq miqdoridagi investitsiyalar kiritilib, turli sexlardagi asbob va uskunalarni almashtirish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Respublikamizdagi eng yirik sanoat korxonasi bo'lgan Navoiy kon-metallurgiya kombinati nafaqat respublikamizda balki dunyoda ham yirik sanoat korxonalari qatorida yuqori o'rinlarda turadi. Navoiy kon-metallurgiya kombinati tomonidan yiliga 50 million tonnaga yaqin ruda qayta ishlanadi va buning natijasida ushbu miqdorga yaqin chiqindi hosil buladi bundan tashqari yiliga atmosfera havosiga 21,66 ming tonna zararli moddalar chiqarilmoqda. Bu muammolarni oldini olish buyicha Navoiy kon metallurgiya kombinati tomonidan turli ishlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz korxonalarimiz ahliga yuksak maqsadlarga erishish, marrani baland olish yo'llarini ham ko'rsatib berdi. Ana shu kezda tasdiqlangan, 2026-yilgacha bo'lgan davrni qamrab olgan dasturga ko'ra, Navoiy kon-metallurgiya kombinatida 27 ta loyiha amalga oshiriladi. Qiymati 3,4 milliard dollardan ziyod bo'lgan mazkur loyihalar

natijasida uning ishlab chiqarish quvvati 30 foizga ortishi, 30 mingga yaqin yangi ish o'rnini yaratilishi belgilangan.

Dasturdan o'rin olganyana bir muhim loyihalardan biri bu — qiymati 247,6 million AQSH dollarga teng bo'lgan 7-gidrometallurgiya zavodi. 2020-yilda uning ma'danni qayta ishlashga ixtisoslashgan 2 ta ishlab chiqarish bloki muddatidan ancha barvaqt foydalanishga topshirildi. Zavod qurilishida qo'llanilayotgan asosiy texnologik uskunalar chet eldan sotib olinmasdan, o'zimizning mashinasozlik korxonamizda tayyorlanishidir.

Mazkur zavodning o'ziga xosligi shundaki, unda tarkibida oltin kam bo'lgan, oldin ishlangan va zaxiraga olingan ma'danni eng murakkab jarayonlar orqali, ya'ni, kislotali ishqorda yana qayta ishlab, mahsulot olinadi. Bu jarayonda faqat mahalliy kimyoviy moddalar ishlatiladi, bu esa tannarxini yanada arzonlashtiradi. Zavod to'la quvvat bilan ishga tushirilgandan so'ng yiliga 15 million tonna texnogen chiqindilarni qayta ishlash va 7,5 tonna qo'shimcha oltin ishlab chiqarish, 4 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratish imkoni yuzaga keladi.

**Xulosa;** Yuqoridagi ko'rsatkichlardan ko'rinib turibdiki Navoiy viloyatidagi turg'un va ko'chma manbalardan chiqayotgan chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan chora tadbirlar reja asosida yildan-yilga oshib bormoqda. Ushbu chora tadbirlarni amalga oshirilishining asosiy maqsadi insonlarni salomatligini, ularni yashash tarzining yaxshilanishi va tabiatni asrashga qaratilgandir. Atrof muhitni muhofaza qilishga qaratilgan turli chora tadbirlar miqdorini va ularning samaradorligini yanada oshirish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Bundan tashqari har bir tashkilot, sanoat korxonasi va transport vositalari sozligini tez-tez tekshirish va nosoz holatlarni tezkorlik bilan aniqlab ularni bartaraf etish choralari ko'rish kerak. Kam chiqindili va chiqindisiz texnologiyalarni va yangi, zamonaviy uskunalar bilan eski texnologiyalarni tezroq almashtirish ham maqsadga muvofiq bo'lar edi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

A.E.Ergashev, A.Sh.Sheraliyev, X.A.Suvonov, T.A.Ergashev, Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish Toshkent «Fan» nashiryoti 2009.

Qosimova S.T. va boshqalar. "Atrof-muhitni muhofaza qilish va shahar iqlimshunosligi (o'quv qo'llanma)" T., Istiqlol, 2005 y.

Юнусов, М. М., Бахромова, Б. Х., & Мирзошарипова, М. Ш. (2022). ФАРФОНА ВОДИЙСИ ЧЎЛ, ТОҒ, АДирЛИКЛАРИДАГИ БИОТОПЛАРДА УЧРОВЧИ ЎРГИМЧАКЛАР РЎЙХАТИ ВА УЛАРНИНГ СИСТЕМАТИК ТАҲЛИЛИ. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(6), 223-229.

Бахромова, Б. (2023). ФАРФОНА ВОДИЙСИ ТОҒ БИОЦЕНОЗЛАРИДА УЧРОВЧИ ЎРГИМЧАКЛАР. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(10), 157-159.

Бахромова, Б. (2023). ФАРҒОНА ВОДИЙСИ ЧЎЛЛАРИ БИОЦЕНОЗЛАРИДА УЧРОВЧИ ЎРГИМЧАК ТУРЛАРИ ВАКИЛЛАРИ. Централноазиатский журнал образования и инноваций, 2(10 Part 2), 154-155.

Бахромова, Б. (2023). Фарғона водийсида учровчи ўргимчакларнинг айрим доминант турлари ҳаётий цикли ва динамикаси. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1(7), 130-137.

Vaxromova, B. (2023). FARG ‘ONA VODIYSI TOG ‘OLDI BIOTSENOZLARI O ‘RGIMCHAKLARINING XILMA-XILLIGI. Interpretation and researches, 1(7).

**Veb saytlar:** Stat.uz, Kun.uz, Yuz.uz